

RANG TASVIRDA RANGLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI**Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi***Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san’at va**Muhandislik grafikasi**yo‘nalishi 1- bosqich talabasi*rayhonajamolidinova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada ranglarning o‘rni, jilosi, ahamiyati va ranglardan qanday foydalanish uslublari, ularni o‘zlashtirish hamda ranglar haqida ko‘plab malumotlar berilgan. Ranglarning inson psixologiyasidagi o‘rni hamda ta’siri haqida tushunchalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ranglar, musavvir, tasviriy san’at, spektr ranglar, axromatik ranglar, xromatik ranglar, kompozitsiya, eskiz, grizyal, akvarel, tempera, moybo‘yoq, natyurmort, mato.

**COLOR. THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF
COLORS IN THE PICTURE**

Abstract: This article provides a lot of information about the place, luster, importance of colors and the methods of using colors, their mastery and colors. Concepts about the place and influence of colors in human psychology are highlighted.

Key words: colors, painter, fine art, spectrum colors, achromatic colors, chromatic colors, composition, sketch, grisaille, watercolor, tempera, watercolor, still life, fabric.

ЦВЕТ МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ЦВЕТА В ИЗОБРАЖЕНИИ

Аннотация: В данной статье представлено много информации о месте, блеске, значении цветов и способах использования цветов, их мастерстве и цветах. Выделены представления о месте и влиянии цветов в психологии человека.

Ключевые слова: краски, художник, изобразительное искусство, спектр цветов, ахроматические краски, хроматические краски, композиция, эскиз, гризайль, акварель, темпера, акварель, натюрморт, ткань.

KIRISH

Tasviriy san’at tarixida ranglardan foydalanish jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ibtidoiy jamoa davrining rassomlari o‘z asarlarida mavjud tabiiy ranglardan foydalanib ishlaganlar. Rang jamiyat rivojlanishi bilan shakllanib quldorlik davrida ranglar akvarel va tempera texnologiyasi ishlab chiqilgan. O‘rta asrlarga kelib esa moybo‘yoq texnologiyasi ishlab chiqiladi. O‘sha davrlardan boshlab ranglar uyg‘unlashishi ham ortgan va avvalgi lokal yassi rang o‘rnini nur va soya yordamida o‘zgaruvchi ranglar

tizimi egallaydi. Barcha buyumlarni to‘laqonli xajmli ko‘rinishida aks ettirish fazoviy borliqni rang orqali o‘zlashtirish rivojlangan. Shu tariqa bugungi kunga qadar rang va unga bog‘liq bo‘lgan jarayon davom etib kelmoqda.

Rang tasvir rassomlar uchun muhim fan hisoblanadi. Tabiatda mavjud barcha rang narsalar shakllarni, atrof muhit go‘zalligini, turli kayfiyat va his tuyg‘ularni ifodalaydi. Ranglarni hamma har xil idrok etadi. Rang yordamida fikr yuritish, loyihalash mumkin. Keyin esa tekis yuzada ranglar majmuini uyg‘unlashtirgan holda koloritni keltirib chiqaradi.

"Rang" so‘zi rang tasvir jarayonida muhim hisoblanadi. Hayotimizdagi ba‘zigi ranglar insonni kayfiyatini ko‘tarib yuborishi ham mumkin. Rang g‘azablantirishi, shod etishi va balki g‘amgin qilib qo‘yishi ham aniq faktidir. Bizning ruhiyatimizga ranglarning tasiri juda katta. Ayrim ranglar tashvishga solsa, ayrimlari esa hotirjamlik bag‘ishlaydi. Ranglarga insoniyat juda qadimdan ahamiyat berib kelishgan va bu holat hozir ham davom etib kelmoqda. Rassom rang tasvir vositalari yordamida betakror asarlar yaratib barchani hayratga soladi. Rang tavrining asosiy maqsadi amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni (talabalarni) ijodkorlikka yo‘naltirish va mustaqil tasviriy san‘at asari yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Rang tasvir san‘ati uyg‘inish davrida rivojlantirishni boshlagan. Bu davrda sanat va adabiyot yuksak darajaga ko‘tarilgan. Rablelar, Servantes, Rafael, Leonardo Da Vinchi, Titsioon, Alberti, Rable, Shekspir, Mikelanjelo, Bokachcho, Petrarka, Aristo kabi mashhur olimlar jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shganlar. San‘at sohasida ko‘p bo‘yoqlar yordamida voqea hodisani his-tuylular bilan tasvirlarda yaratganlar. Rassomlar asarlar yaratishda rangli detallarga alohida e‘tibor berganlar. Ijodkor musavvirlar yaratayotgan asarida rangli obrazlardan foydalanishgan.

Rang tasvirning rivojlantirishida qalamtasvirning o‘rni ham kattadir. Lekin mohir musavvir qlamandan foydalanmay turib suratni bo‘yoqlar yordamida ham tasvirlashi mumkin. Rassom qalam tasvirni mukammal o‘zlashtirib olmagunicha rang tasvirda qoniqarli darajada ijod eta olmaydi. Qalam tasvirni puxta o‘zlashtirgandagina rang tasvirda ko‘zlangan maqsadiga yetadi. Aks holda noaniq yechilgan qalam tasvir ishini tahlil qiladigan bo‘lsak ranglar qanchalik jozibali bo‘lmasin baribir bu ishni sifatli deb bo‘lmaydi. Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalam tasvirda, rang tasvirda, haykaltaroshlikda, me‘morchilikda, har qanday ilimning ildizi va negizini ko‘rgan. "Qalam tasvir doimo bizga yo‘l ko‘rsatib turuvchi qutb va kompas bo‘lib, turli bo‘yoqlar okeanida chekayotganlarga najot berish omilidir" deb takidlaydi Sharl Lebel. Engr o‘z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so‘zlarni yozgan: "Bu yerga kelgan shogirdlarimga qalam tasvirni o‘rgataman, ular ketayotganlarida esa rang tasvir ustasi bo‘lib ketishadi" bu so‘zlari bilan Engr qalam tasvirni sanat turlarining asosiyligini nazarda tutgan. "Kim qalam tasvirni mukammal o‘zlashtirsa ana o‘shandagina rang tasvirni ham o‘zlashtira oladi"-deb aytgan.

"Qalam tasvirga asoslanmagan rang tasvir sanat emas balki rangli dog‘larning tartibsiz yig‘indisidir" deya doim takrorlagan V. Ye. Maskovski. Har qanday shaklni ajoyib

v nafis qiluvchi rang emas balki aniq chizilgan qalam tasvirdir" degan Titsian. U qraigani chog'ida ko'mir yoki mel bilan nimanidir chizmagan kuni bo'lmagan. Qalam tasvir shaklni qayta ishlab chiqadi voqea va hodisalar haqida ma'lumot beradi. Unda kompozitsiya g'oyalari hamda tasavvur mujassamlashgan. Kompozitsiya ham birinchi qalam tasvirda paydo bo'ladi. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa nemis shoiri va sanatshunosi V. Gyuteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatiladigan tasiri ko'proq qiziqtirgan. U bu haqidagi ta'limot asarida ranglarning iliq va sovuq tushlarga ajratgan. Iliq (sarg'ish va qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini sovuq (havorang, yashil) ranglar esa mayuslik tuyg'usini uyg'otish haqida yozgan. Zarg'aldoq, qizil, yashil, sariq, havorang, zangori, binafsha, ranglar - spektr ranglar hisoblanadi. Rang tasvirning haqiqiy usuli bu shaklni mutloqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmasidir. Qalam tasvir mahoratini puxta egallash, betakror rang tasvir asarlari yaratish garovodir. Rang tasvirchi rassom naturadagi ana shu jihatlarni yo'laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda bu jihatlarni mavjud bo'lmasa ehiyotsizlik va palapartishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi. Rang tasvirda ranglar qalam tasvir bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Yani ishni rangda boshlash uchun qalamda naturaning zarur joylari belgilab olinib shakllarning shartli chiziqlarini unutilib ranglar vositasi shakl hajmini tasvirlash darkor. "Rang" so'zi malumki fors tilidan o'zlashtirilgan. Qolaversa ko'plab ranglarning nomi ham forscha "zangori", "binafsha", "galub", "qirmizi", "jigarrang", "pushti", "siyohrang", "moviy (arabcha o'zak)", "kulrang" birinchi komponenti -kul "tub" so'z bo'lsada, birikma strukturasiga ko'ra U keyingi zamonda, fors ma'daniyati ta'siri chog'ida paydo bo'lgan.

METODOLOGIYA

Rang ma'nosini beruvchi so'z hamma tillarda bor. Shunga qaramay ularni 100% bir-biriga mos tarjima ekvivalent deb tushunish hato bo'ladi. Xalq elatlar rang tushunchasini turlicha qabul qiladi. Har hil ranglar madaniy va maishiy alomat beradilar. Qayerdadir qizil mashhur yana qayerdadir esa qora rangi. Shuning uchun fors tilidan "rang so'zi" kirib kelganida, u tub turkcha so'z sinonimga aylanadi. So'z bilan birga turkiy xalqlarning ranglar haqidagi tushunchalari va rang ro'yhati o'zgaradi. Bugun "rang" so'zi adabiy tilda ham so'zlashuv tilda ham yetakchilik qiladi. Uning sof turkcha muqobili bo'lmish bod esa "bo'ya" fe'lida bo'yoq nomida saqlanib qolgan (Qadimgi turk tilida so'z o'rtasi hamda oxirida keladigan "d" tovushi "y" tovushiga o'tishi keng tarqalgan fonetik hodisa) Bizning atrof - muhitimizni turli-tuman ranglar o'rab turadi va ular insonni benihoya quvontiradi. Biz bu ranglarni ko'ra olishimizga sabab butun olamni yorituvchi quyosh nurlaridir. Qorong'uda biz hech qanday rangarni ko'ra olmaymiz. Quyosh yoki elektr chirog'i nurlari yorug'lik talqinlarisiz ranglarni ko'rishimiz qiyin. Bizda ushbu yorug'lik vositalari tushishi bilan ranglarni his eta boshlaymiz.

Rangni ko'rib his qilish 2guruxga bo'linadi.

Birinchi guruhni axromatik ranglar;

Inkinchi guruhni xromatik ranglar jamoasi tashkil etadi.

•Axromatik ranglar: oq, qora, kulrang, (eng to'q rangdan eng och ranggacha)

•Xromatik ranglar : qizil yashil, pushti, sariq, havorang (nimpushti, nimsariq, nimyashil va hokazo)Har qanday ranglarning uchta xususiyati bo‘ladi. Birinchisi ranglarning yorqinligi , ikkinchisi tushlari, va uchinchisi ranglarning och to‘qligi. Ongimizda rang tushlari bizga tanish bo‘lgan narsalar rangi orqali shakllanadi. Rang tushlari uning spektrdagi o‘rni asosida bilib olish mumkin. Yorug‘da mashq qilgan ko‘z ranglarning 180 tasi to‘qligining, 10 pog‘onasini farqlay oladi.Rangning yorqinligini bilish uchun har qanday rang va tushini yorug‘ligi bilan solishtirib ko‘rish mumkin. Buni natijasida qay biri yorqinroq qay biri qoraroq ekanini bilish mumkin bo‘ladi. Rangga suv qo‘shib yoki oq bo‘yoq qo‘shib rangning yorqinligini o‘zgartirish mumkin. Buning natijasida qizil - pushtiga ko‘k - havorangga, yashil nimyashil rangga o‘zgaradi. Yorug‘lik axromatik va xromatik ranglarni tegishli sifat hisoblanadi. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak. Ko‘p hollarda musavvirlar bo‘yoqlar nisbatini tushlar nisbati deyishadi. Asarlarda aks etgan yorug‘lik bilan rang tushlarini yorug‘lik soya bilan ranglar tizimini adashtirmaslik kerak. Tasvir yorqin tushlar bilan ishlangan deyilganda avvalo bo‘yoqlar nisbati ko‘zda tutiladi. Axromatik ranglar faqat yorqinlik bilan tasvirlanadi.Yorqinlik bo‘yicha farqlar ba’zi ranglarning ochroq ba’zilarini esa to‘qligidandir. Inson ko‘zi axromatik va xromatik ranglarning 10000 xil rang tushini farqlay oladi .O‘rtacha yorug‘lik darajasidagi apektorning 180 xil rang tushini ham aniqlay oladi. Rangni his qilishda ko‘zlarning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Rassomlarning har bir ijodida ham ushbu jarayon birdek bog‘liqdir. Ranglar inson ruxiyatiga o‘ziga xos ravishda tasir etadi . Ranglarni inson ruhiyatiga tasir etishiga bog‘liq bo‘lgan juda ham ko‘p qarashlar mavjud. Rang tasir etish xususiyatiga ko‘ra insonda ijobiy va salbi xis tuyg‘ularini uylotish mumkin. Ruxshunoslar har bir rangni qabul qilishda inson o‘ziga hos yondoshadilar. Chunki 1ta rangni har kim turlicha qabul qiladi. Xalqimizda oq rang avvaldan qadrlanadi. Chunki U halolik va poklik ramzi. Qora rang motam alomati , yashil ona tabiatimizni , ko‘k musaffo osmonimizni va tinchlik ramzi sifatida qadrlaymiz.

NATIJALAR

Ranglarning inson organizimiga ta'siri rang va inson muammosini turli mutahassislikdangi olimlar o‘rganishida davom etmoqdalar. Ular orasida ruxshinoslar, shifokorlar, kimyogarlar, fizik va hattoki muhandislar ham bor. Hamda ular ranglari inson salomatligiga ularning asab tizimiga ta'sir ko'rsatishini o'z tajribalarida isbotlab berishganlar.Biz bilamizki rang tasvir san'atida ham ranglarning ahamiyati kattadir. Chunki ranglar musavvir tasvirlagan asarlarning maxmum-u mohiyatini yoritib beradi. Mohir musavvirgina tasvirlayotgan buyumidagi barcha ranglarni ko‘rib keyin qog‘ozga tushirishga harakat qiladi. Shundagina tomoshabinning e'tiboriga tusha oladi. Mashhur rus rassomi P.P.Chistyakov shunday degan: "Rangni aniq ko‘rish uchun tabiat qonuniyatlarini bilishi kerak . Bu bilim esa ko‘rishga yordam beradi " degan. Rangshunoslikda rangning aromatik axromat, iliq, sovuq, asl, qo‘shimcha va brima turlari bilan bir qatorda og‘ir va yengil turlari ham mavjud. Og‘ir ranglar turkumiga to‘q tusda bo‘lgan ranglar kiradi.Misol uchun jigarrang, ko‘k, yashil, zangori binafsharang. Oq, sariq, havorang, moviy, pushti, bu ranglar yengil ranglar turkumiga kirib och tusdagi ranglar hisoblanadi. "Agar sen malakali musavvir

bo‘lishni hohlasang avvalo yaxshilab kuzatishni keyingina chizishni, so‘ng ranglar yorug‘likning birinchi darajasi qanchalik ko‘rinishini baholab va tusning quyiqligini kuzatib yozdi. Leonardo Da Vinchi. Shunda biz hulosa qilishimiz mumkinki musavvir uchun yorug‘lik va soya munosabatlari eng asosiy ko‘nikma bo‘lib hizmat qiladi.

Rang tasvirda o‘zaro munosabatlar vazifasi ranglarni ifodalash orqali murakkablashib boradi. Buyumlar tanho muhit sharoitidan kelib chiqib doimo o‘zgarib boradi. Bund yorug‘lik katta ahamiyatga ega. Musavvirlar tasvirda buyumlarning turli tuslarini ifodalash uchun yorug‘lik kontrastlaridan foydalanadilar. Och rangdagi narsalarni to‘q ranglari yoniga qo‘yib, ranglar yorug‘likni kuchaytiradilar. Natijada tasvirlanayotgan tasvir ifodasi yoritishga erishadilar. Rang tasvirda tur va soya munosabatlarini aniq ifodalanganligi natijasidir yoki rang munosabatlarining aniq ifodalanganligi natijasi bo‘lishi ham mumkin. Shu sababli ham rang ta’sirida buyum shakli asosiy rangni to‘qlik yoki ochlik sifatlari bilan hosil bo‘lmaydi. Rangning uch sifati bor va rang tuslarining aniq ifodasi yordamida bu natijaga erishish mumkun.

Realistik rang tasvirda shakl ifodasi nur soya hamda rang munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Rang tasvir san’atida ranglar qarama-qarshiligi atamasi ham mavjud. Ranglarning o‘ziga hos xususiyatlaridan biri ranglar, bir biri bilan yonma-yon turganda alohida turganidan ko‘ra o‘zgacha ko‘rinadi. Ya’ni bunday holatda bir-birining tusini aniq ko‘rinishiga yordam beradi. Musavvirlar qarama-qarshi rang hodisasidan asarlar yaratish jarayonida asardagi asosiy obrazdagi asarni ajratib ko‘rsatish maqsadida foydalanadilar.

Rang qarama-qarshiligining bir necha turlaridan foydalanamiz.

1. Bir rangning ko‘p tuslarini qo‘llash
2. Ikki rangning och va to‘q tuslarini qo‘llash
3. Bir rangning ikki xil ya’ni och yoki to‘qlikda qo‘llash.

Ushbu uch turdan foydalanib qarama-qarshi rang hodisasini asarlarda qo‘llash mumkin. Bu esa albatta rassom uchun rang tasvirni o‘rgatish jarayonidagi kerakli qoidalaridan biridir.

Rassomchilik san’ati o‘rganayotgan har bir bo‘lajak musavvir rang tasvir asoslarini yaxshi o‘rganishlari kerak. Hamda undagi rang turlarini bilishi muhim hisoblanadi. Chunki rang turlarini bilmagan va rangdan unumli foydalana olmaydigan musavvir musavvir emasdir.

XULLOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki har qanday mutaxassis rassom bo‘lishni hohlagan inson birinchi o‘rinda rang tasvir janrida sarmazmun ijod qilishi, o‘z ustida ko‘proq ishlashi va albatta ko‘plab izlanishlar olib borishi zarur. Shundagina malakali rassom bo‘lib yetishishi mumkin. Ranglarning turi tasniflari hamda ranglardan unumli foydalanish usullarini puxta o‘zlashtirishlari zarur. Sababi tasviriy san’at tarixida ranglardan foydalanish jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ranglardan foydalanishni yahshi o‘zlashtirgan rassomlar asar yaratishda qiynalmaydilar. Chunki ijodkorlar yaratayotgan har bir asarlar yaratishda bevosita ranglarga to‘htaladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isaxo‘jayeva Nasiba. Rangtasvir kompozitsiya (natyurmort) Toshkent - 2012
2. S.F Abdurasilov Tasviriy san’at metodikasi Toshkent-2012
3. S.S. Bulatov. Rangshunoslik Toshkent-2009. O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
4. G.A. Hakimova "Natyurmort chizmatasviri" Buxoro -2012 "Kamolot "nashriyoti
5. O. Muinov Rangtasvir Toshkent -2007 Sharq nashriyoti - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati
6. A. Mamataliyev, O. Adhamova . "Rangtasvirda rangshunoslikning ayrim masalalari" Andijon - 2023 "Omadbek print"nashriyoti